



## NUTQ KAMCHILIKLARNI KORREKTSIYALASHDA LOGOPEDIK RITMIKA VOSITALARINING TAVSIFNOMASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11170281>

**Aralova Iroda Meliqo`zi qizi**

*JDPU Maxsus pedagogika kafedrasi o`qituvchisi*

**Egamberdiyeva Shahnoza Akbar qizi**

*JDPU Maxsus pedagogika kafedrasi o`qituvchisi*

### ANNATATSIYA

Ritmika mashqlarida bolalar musiqa, raqs, qo'shiq bilan tanishadilar va turli harakatlarini o'zlashtiradilar. Ritmika mashqlari o'z ichiga: qo'l harakatlari: yugurish umumrivojlantiruvchi mashqlar (predmetlar bilan va ularsiz) o'qituvchi boshchiligidagi bajariladi raqs, musiqali – ritmika va harakatli o'yinlar.

**Kalit so`zi**

Nutq, ta'lim, tarbiya, qobiloyat, istedod, retmika, harakat, umumlashtirish, raqs, musiqa.

### ANNOTATION

In rhythmic exercises, children get acquainted with music, dance, song and master various movements. Rhythmic exercises include: hand movements: running general development exercises (with and without objects) performed under the guidance of a teacher, dance, musical-rhythmic and movement games.

**Key word**

Speech, education, training, ability, talent, rhythm, movement, generalization, dance, music.

"Mamlakatimizda yoshlarni, ayniqsa talabalarni mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rnatish muammosi ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor masalalardan biridir. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rjanmasa, berilgan ta'lim samarasiz bo'ladi, Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir". Davlat rahbarining bu gaplari oliy ta'lim sohasida bilim olayotgan pedagogik kadrlarga nisbatan ayniqsa dolzarbdir. Zero mustaqil fikrlaydigan, bilimli, ijodkor yoshlarning ta'limi va tarbiyasi avvalam bor pedagoglar zimmasiga yuklanadi. Ijodiy fikrlash shaxsiy fazilat sifatida inson faoliyatining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Ijod, ilhom, ijodkorlik faqatgina iste'dodli shaxslargagina xos xislat emas. Ta'lim jarayonida barcha yoshdag'i ta'lim oluvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va o'quv jarayonida ularga tayanish lozim. Yuqorida bayon qilingan



fikr-mulohazalardan kelib chiqib, shuni ishonch bilan ta'kidlashimiz mumkinki, hozirda maxsus maktab muassasalarida maxsus fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish kun tartibidagi dolzarb masalalardandir.

Ta'lif - tarbiyaviy ishlar bolalarning fkirlash qobiliyati diqqati, ish qobiliyati, xotirasi, nutqi va tafakkuridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, bunday bolalarga bilim berishda o'qituvchi uning o'ziga xos individual xsusiyatlarini etiborga olgan xolda maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan ishlaydi, tegishli yordam tashkil etadi.

Ritmika mashqlarida bolalar musiqa, raqs, qo'shiq bilan tanishadilar va turli harakatlarini o'zlashtiradilar. Ritmika mashqlari o'z ichiga: qo'l harakatlari: yugurish umumrivojlantiruvchi mashqlar (predmetlar bilan va ularsiz) o'qituvchi boshchiligida bajariladi raqs, musiqali – ritmika va harakatli o'yinlar. Ritmika buyicha belgilangan dastur 8 ta bo'limni o'z ichiga oladi. Nazariy ma'lumotlar. Nazariy ma'lumotlar shunday tanlanganki, barcha yoshdagilar ta'limda ichki qonuniyatlar, o'rganilayotgan nazariy materialni murakkablashishi kuzatiladi. Bu o'zlashtirish jarayonini muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi va bolalalarni musiqaga qiziqtiradi. Maxsus ritmik mashqlar. Bu metodik usullarning sodda turi hisoblanadi. Bunga qo'l harakati mashqlari, qarsak mashqlari, maqol va she'rni yodlash kiradi. Bunday mashqlar nafaqat sur'at hissini, balki nafasni ham rivojlanadir. Maxsus mashqlar murakkablashuv darajasiga qarab belgilanadi.

Harakat va musiqa bog'liqligidagi mashqlar. Bu bo'limda bajariladigan har bir mashq musiqa asosida bajarishga tayanadi. Turli harakatlarning takomillashishi jarayonida o'qituvchi bolalarda mashqlarni bajarish bo'yicha texnik malakalarini tarbiyalaydi. Ular ichida eng asosiyalar: musiqa boshlanishi bilan qo'zg'alishni boshlash, harakatga kerakli ifoda kiritish, musiqa yakunlanishi bilan harakatli to'xtatish bo'lib hisoblanadi.

Ritmik gimnastika mashqlari bolalar organizmining funksional imkoniyatlari bilan bog'langan. Bu mashg'ulot o'z ichiga harakat buzilishlarini korreksiyalashga, harakat sifatini rivojlanirishga jismoniy va funksional imkoniyatlari bilan bog'langan. Bu mashg'ulot o'z ichiga harakat buzilishlarini korreksiyalashga, xarakat sifatini rivojlanirishga jismoniy va funksional rivojlanishini tashkil etishga yo'naltirilgan umumrivojlantiruvchi maxsus mashqlarni o'z ichiga oladi. Raqsga tayyorgarlik mashqlari. Tayyorgarlik mashqlarining vazifasi bolalarga raqs zarur harakat malakalarini berishdan iborat.

Bolalarning diqqati o'z harakatiga ongli munosabatda bo'lishga qaratiladi. Istalgan elementini o'rgatishdan avval belgilangan tayyorgarlik mashqlarini o'tkazish tavsiya etiladi. Raqs elementlari. Raqs elementlarini bajarish yurish, yugurish va boshqa harakatlar turlarini o'rganishga yordam beradi. Raqlar. Ritmika mashg'ulotlarida raqlardan foydalanish estetik didni rivojlanirishni



raqsga muhabbatli bo'lishni ta'minlaydi. Musiqali ritmik o'yinlar. Musiqali - ritmik o'yinlar bolaning irodaviy rivojlantirishga qaratilgan.

Logopedik ritmikaning vositalari quyidagilardir: turli yo'nalishdagi yurish va harbiylarcha yurish; nafas, ovoz va artikulyatsiyani rivojlantirish uchun mashqlar; muskullar tonusini boshqaruvchi mashqlar; diqqatni faollashtiruvchi mashqlar; hisobli mashqlar; musiqa kuzatuvisiz nutqiy mashqlar; musiqiy o'lchov yoki metr tuyg'usini shakllantiruvchi mashqlar; musiqiy temp tuyg'usini shakllantiruvchi mashqlar; ritmik mashqlar; kuylash; musiqiy asboblarda o'yin mashqlari; nutqiy buzilishi bo'lgan odamlarning mustaqil musiqiy faoliyatlar; o'yinli faoliyat, ijodiy tashabbuslarni rivojlantirish uchun mashqlar; yakuniy mashqlar. Logoritmik vositalar musiqiy tarbiya ishida o'zining maxsus xususiyatiga egalik qiladi, biroq ular asosan asabiy-psixiatrik va logopedik tashkilotlarda davolash-pedagogik usul sifatida ko'rib chiqiladi. Sanab o'tilgan barcha ish turlarining qurilishida asosiy tamoyil – harakatning musiqa bilan zinch aloqasidir. Musiqa uning buyuk hissiy ta'siri, ifodalovchi vositalar boyligi bilan harakat usullari va mashqlarni tiganmas turli-tuman bo'lishi imkonini beradi.

Logoritmik vositalardan foydalanishning keyingi tamoyili ularga nutqiy materialni kiritish majburiyatini ko'zda tutadi. So'z o'ta turli-tuman shakllarda kiritilishi mumkin: bu qo'shiqlar matni, xorovodlar, kuylash bilan dramatizatsiya, berilgan mavzuda instsenirovkalar, harakatli o'yinlarda boshlovchining buyruqlari, stsenariy olib boruvchi (rejissyor) ning ko'rsatmalari va h.k. So'zni kiritish musiqiy ritmda emas, she'riy qurilgan harakatlarning ritmiy bo'lishiga yordamlashuvchi bir qator mashqlar yaratishga imkon beradi.

Logopedik ritmika vositalarini nutqiy patologiyasi bo'lgan odamlarning mustaqil harakatli, musiqiy va nutqiy faoliyati asosida yotuvchi sekin-asta murakkablashib boradigan ritmik, logoritmik va musiqiy-ritmik mashqlar hamda topshiriqlar tizimi kabi tasavvur qilish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedova x. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suhbat o'tkazish metodikasi. - T.: o'qituvchi, 2015, 32 b.
2. Ayupova M.Yu. "Logopediya" darsligi. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent -2007y.
3. Aralova I.M Maktabgacha Ta'lim Ypshidagi Bolalarni Nutq Nuqsonlarin

Korreksiyalashda Tasviriy Faoliyatdan Foydalanish Metodlari. „Xalq Ta'limi „O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligining Ilmiy-Metodik Jurnali 2021



- 
4. Aralova I.M "Maktabgacha Ta'lif Tashkilotida Tasviriy Faoliyatning Mashg`Ulot Turlari Va Mazmuni". «Муғалим Ҳәм Узликсиз 447 Билимлендириў» № 6/5 Нөкис – 2022
  5. Akramova X, Aralova I. Maktabgacha ta'lif yashidagi bolalarini nutq nuqsonlarini korreksiyalashda tasviriy faoliyatdan foydalanish metodlari. „Xalq ta'limi” O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining Ilmiy-metodik jurnali 2021